

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIGA OID MEDIA QISQARTMALARI VA ULARNING AHAMIYATI

**Quziyeva Taxmina Faxriddinovna**

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

[faxriddinovna2003@gmail.com](mailto:faxriddinovna2003@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llanilib kelinayotgan media qisqartmalar xususida so'z borgan. Ularning bugungi kundagi ahamiyati, internet foydalanuvchilari uchun qulayliklari batafsil yoritilgan. Ijtimoiy tarmoqqa xos abbreviaturalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar keltirib o'tilgan. Media qisqartmalardan ba'zi namunalar izohlangan. Mavzuga oid ijtimoiy so'rov va uning natijalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Abstract:** This article is about media abbreviations that are widely used in social networks. Their importance today, their convenience for internet users are covered in detail. There have been problems that arise in the process of using social network-specific abbreviations. Some examples of media abbreviations have been annotated. Information on the topic Social Survey and its results is provided.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy media, globallashuv, jargon, abbreviatura, axborot, internet, chat, virtual muloqot, tadqiqot, ijtimoiy so'rov.

### **KIRISH.**

Globallashuv jarayoni va internet takomillashuvi insonlarning muloqot uslubini tubdan o'zgartirdi. Bugun biz faqatgina internetning qulay usullaridan foydalanibgina qolmay, balki ushbu global tarmoqning bir qismiga aylandik. Ijtimoiy tarmoqlardagi rivojlanishlar zamonaviy davrga o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Ijtimoiy media saytlari insonlarga dunyoning turli nuqtalaridan juda qisqa fursat ichida axborot almasha olish imkoniyatini yaratib berdi va hattoki his-tuyg'ularni ifodalay oladigan virtual muloqot usuliga aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy media - bu hamkorlikdan foydalanadigan odamlarni to'plash uchun ishlataladigan atamadir. Hozirgi kunda ko'plab ijtimoy media tarmoqlari mavjud: Telegram, Instagram, Twitter, Facebook va hokazo. Ijtimoiy tarmoqlarning esa o'z qoidalari bor.

Til va insonni bir-birisiz tasavvur etish mushkul. Ular o'zaro bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Ijtimoiy media qisqartmali insonlarning norasmiy tildan foydalanishlari sababli yuzaga kela boshlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi insonlarning o'z

ona tilida muloqot qilish (gapishtirish va yozish) usullarini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu tarmoqlar foydalanuvchilarga chat, post, tvit, sharh va muhokama kabi rasmiy va norasmiy usullarda axborot almashish imkoniyatini yaratdi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Qisqartmalar tibbiyotdan dingacha hayotning barcha sohalarida mavjud. [1] Nega biz abbreviaturalardan tez-tez foydalanamiz? Chunki har bir so‘zni to‘liq yozish yoki talaffuz qilishdan ko‘ra uning qisqartirilgan shaklini qo‘llash bizdan kamroq vaqt talab etadi. [3] Abbreviaturalar kundalik nutqiy muloqotni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Ancha yillar oldin matnli xabarlar jo‘natish va qabul qilish juda qimmat bo‘lgan, chunki har bir xabar 160 belgi bilan cheklangan va har bir belgi qiymatli edi. [4] Telefon klaviaturasi yordamida standart matn yozish ham mashaqqatli jarayon bo‘lib, har bir belgi uchun tugmachalarni bir necha marotaba bosishni talab qildi. Shunday qilib, mobil telefon foydalanuvchilari umumiy so‘z va iboralarni qisqartirish orqali kamroq xarajat va harakat qilish maqsadida belgilangan talablarga moslashishgan. Qisqartma so‘zlar yordamida matn yozish mashhur bo‘lgan va matnli qisqartmalarning yangi tili rivojlanib, internet madaniyatiga kiritilgan. Zamon rivojlanib, endi avvalgi to‘siqlar bartaraf etilganiga qaramasdan insonlar muloqotda abbreviaturalardan foydalanishga moslashishgan va ijtimoiy media qisqartmalarini qo‘llash butun dunyo bo‘ylab axborot kommunikatsiyalarining asosiy qismi bo‘lib qolmoqda.

Har bir ijtimoiy tarmoq matnli xabarlardan boshlangan. Yozish jarayonini tezlashtirish uchun insonlar o‘z fikrlarini ifodalashning yangi tabiiy usullarini ixtiro qildilar. Shu tariqa, qisqartmalar internet tarmoqlarida foydalaniladigan tilning noyob bir qismiga aylanib ulgurgan. Qisqartma bu korporativ nomning qisqacha shakli yoki bitta so‘z sifatida talaffuz qilinishi mumkin bo‘lgan harflar to‘plami hisoblanadi. [5] Internet foydalanuvchisi nima deyayotganligini tushunish uchun ijtimoiy media qisqartmalarini o‘rganish muhim sanaladi.

### **Ijtimoiy tarmoqqa xos ba’zi media qisqartmalar: [2]**

**1. FB=Facebook**

**2. IG= Instagram** ushbu tarmoq foydalanuvchilar orasida “insta” qisqartmasi bilan mashhur. (Instadan yangi xabar yubordim, o‘qidingmi?)

**3. LK=LinkedIn**

**4. TW=Twitter**

**5. YT=You Tube**

**6. DM= Direct message= To‘g‘ridan to‘g‘ri xabar**

**7. PM=Private message = Shaxsiy xabar**

**8. BD=Birthday= Tug‘ilgan kun**

**9. 4ever= Forever= Har doim**

- 10. 2nite**= Tonight=Kechqurun
- 11. SMS**= Short message service= Qisqa xabar xizmati
- 12. B4**=Before=Oldin
- 13. BC**=Because= Chunki
- BAE**= Before Anyone Else= Hammadan oldin
- 14. 411**=Information= Ma'lumot
- 15. IDK**=I don't know= Men bilmayman
- 16. IMO**: In My Opinion= Mening fikrimcha
- 17. IRL**: In Real Life= Haqiqiy hayotda
- 18. ISO**: In Search Of= Qidiruvda
- 19. TBH**=To be honest= Rostini aytsam

Quyida abbreviaturalar ishtirok etgan qisqa hajmdagi chatni keltirib, undagi media qisqartmalarni ajratib oldik.

- When you **BD?** ( Birthday)
- Tarjimasi: Tug'ilgan kuning qachon?
- **2day** ( Today)
- Tarjimasi: Bugun
- Ohh,sorry. **HBD2U** !( Happy birthday to you) [8]
- Tarjimasi: Oh, kechir. Tug'ilgan kuning bilan!
- **Thx** (thank you)
- Tarjimasi: Rahmat

Ingliz va o'zbek tilidagi ijtimoiy media qisqartmalarini tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo'ldimki, ingliz tilida nafaqat so'zlar, balki ibora va gaplar ham abbreviatsiya usuli orqali qisqartirib ifodalananar ekan. O'zbek tilida esa ibora va gaplarning abbreviatura orqali ifodalanganligini uchratmadim.

### **MUHOKAMA.**

Sizningcha, bu yerda nima deb yozilgan? **IMOYSK**

Bu hech qanday notanish til yoki sirli jumboq emas, balki "In my opinion you should know it" ya'ni "Mening fikrimcha, siz buni bilishingiz kerak" gapining ingliz tilidagi qisqartma shakli, xolos.

Bugungi kunda globallashuv davri natijasida insonlar axborotni tez qabul qilish va qisqa so'zlar orqali fikrini ifodalashga moslashishgan. Aynan bu jihat ijtimoiy media olamida qisqartma so'zlarga bo'lgan talab va ehtiyojning ortishi, abbreviaturalarning qo'llanish doirasi ancha kengayishiga sabab bo'lgan. Agar siz ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlarni kuzatgan bo'lsangiz, tushunish biroz vaqt talab qiladigan turli tillarga oid qisqartmalarni uchratgan bo'lishingiz mumkin. Misol uchun,

спс= спасибо (rus tiliga oid so‘z), thx= thank you (ingliz tiliga oid so‘z) va hokazo. Hatto, tarmoqlarda matnli xabarlardagi ayrim harflarni qoldirib, ularning o‘rniga raqamlarni qo‘sib yozishning yangi turi [7] ham urfga aylanayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. ( **B4** =before, **2day**=today singari)

Jargon so‘zlar qisqartmalari ham bugungi kunda ijtimoiy media foydalanuvchilari tomonidan ko‘p qo‘llaniladi. Jargon – bu nostandard so‘zlar va iboralarning bir turi, masalan, CHALE, XOXO...Keksa avlod internet jargonlarini qabul qilishni istamasa ham, ulardan matn yozishda foydalanmaslikka harakat qilsa ham, davr yangi turdag'i matnlardan foydalanishni talab qiladi, yosh avlod abbreviaturalarni afzal ko‘radi. Jargon qisqartmalaridan foydalanishning o‘ziga xos qulayliklari mavjud, chunki ular odatda boshqalar uchun oson talqin qilinadi va ko‘p vaqt ni tejaydi. Ijobiy va salbiy jargonlar asosan Facebook va Twitter tarmoqlarida ko‘p ishlatiladi. [6]

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda qisqartmalardan foydalanish til bilan bog‘liq ba’zi muammolarga ham sabab bo‘lmoqda. Negaki, o‘zbekcha muloqot orasida inglizcha yoxud o‘zbek tilida keng qo‘llanilmaydigan qisqartma so‘zni keltirib o‘tilishi oddiy aholi uchun tushunarsiz bo‘lib qolmoqda. Hattoki, ayrim qisqartmalarning ma’nosini lug‘atlardan ham topish qiyin. O‘zbek tilida esa abbreviaturalar tadqiqi borasida olib borilayotgan ilmiy ishlar salmog‘i juda oz. Ingliz va rus tillarida abbreviaturalarga oid lug‘atlar, nazariy manbalar ko‘p bo‘lishiga qaramay, haligacha o‘zbek tilida qisqartmalarga oid biror bir lug‘at mavjud emas. Bu esa biz kabi bo‘lajak soha mutaxassislari oldida turgan yana bir muhim yo‘nalishdir

## NATIJALAR.

2017-yil 29-noyabrda Iordaniya Bengkulu universiteti olib borgan tadqiqotiga ko‘ra, ushbu universitetda Facebook ijtimoiy tarmog‘idan foydalanuvchi talabalarning 65% muloqot jarayonida qisqartmalardan foydalanishi aniqlangan. [9] Misol uchun: tq = thank you, bff= best friend forever

Insonlar o‘z nutqida qisqartmalardan keng foydalanishsa-da, ularning qanday ma’noga ega ekanligini aksariyat hollarda bilishmaydi. Shunchaki, bu holat bugungi kunda urfda ekanligi sabab abbreviaturalarni qo‘llashni afzal ko‘rishadi. Kichik tajriba o‘tkazish maqsadida 20 nafar kursdoshlarim o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazdim va unda quyidagi qisqartmalarning to‘liq shaklini bilish darajalarini aniqlashga urindim: GPA, IT, SMM, IQ, VPN, Wi-fi, IELTS. Natjalarga ko‘ra 70% ishtirokchilar ushbu qisqartmalarning qaysi so‘zlardan kelib chiqqanligi, to‘liq shaklda qanday ma’no anglatishi haqida bilishmasligi aniq bo‘ldi. Bu esa abbreviaturalarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligidan darak beradi.

Internet foydalanuvchilari bo‘lgan aksariyat yoshlar ba’zan til qoidalariga amal qilmagan holda so‘zlarni noodatiy tarzda qisqartirishadi. Bu esa ular abbreviaturalar

to‘g‘risida yetarli bilimga ega emasliklarini bildiradi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek foydalanuvchilari so‘zlardagi unli tovushlarni tushirib qoldirish hisobiga ularni qisqartirishlariga juda ko‘p guvoh bo‘lamiz. Vaholanki, bu qisqartma emas, balki imloviy xatolik sanaladi. Bu ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llaniladigan ingliz tiliga oid “ok” so‘zi o‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholi uchun ham o‘zlashgan media qisqartmaga aylanib ulgurgan. O‘zbek tiliga oid **b-n**= bilan, **boshq**=boshqalar, **u-n**= uchun, **h.k**=hokazo, **k.k**=kerak va boshqa shunga o‘xhash qisqargan so‘zlarni ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez uchratishimiz mumkin.

### XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, internet tarmoqlarida abbreviaturalardan unumli foydalanish yoshlar orasida keng tarqagan. Vaqt, joy va energiyani tejash ijtimoiy media qisqartmalarining eng ajoyib xususiyatlaridan biri. [10] Internetda muvaffaqiyatli muloqotga erishish uchun media qisqartmalarining pragmatik funksiyalarini bilish talab etiladi. Bunday qisqartmalarni to‘liq o‘rganmay turib tushunish va anglamagan holda qo‘llash ko‘plab noqulayliklarga sabab bo‘lmoqda. Yoshlar o‘z nutqida qisqartmalarni qo‘llashdan oldin ular haqida tilshunoslardan yetarlicha bilim va ko‘nikmalar olishsa, qisqartma so‘zning qaysi so‘zlardan olinganligi va to‘liq atash ma’nosini to‘g‘risida izlanishsa, yuqorida ta’kidlangan muammolar bartaraf etiladi. Bu natijaga erishish uchun, albatta, soha mutaxassislarining yordami muhim hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jan, Burmeister. (2008). “Acronyms and other forms of abbreviation”
2. Jacqueline, Zote.(2020). “130 most important social media acronyms and slang you should know”
3. Joanna, Cutrara. (2019) “What they are, why they exist and how to use them”
4. Karin Olafson, Katie Sehl. (2021) “The ultimate list of social media acronyms and abbreviations”
5. Suzan. H. Akkan (2016) “A guide to Turkish abbreviations and acronyms”
6. Wisam Abd Madhi (2022) “Acronyms and abbreviations in the language of social media”.
7. <https://gonaturalenglish.com/how-to-understand-social-media-acronyms/>
8. <https://kutola.co.uk/100-social-media-acronyms-and-abbreviations-you-need-to-know/>
9. <https://buffer.com/library/social-media-acronyms-abbreviations/>
10. <https://www.yuqo.com/the -definitive-guide-to-social-media-acronyms/>